**O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi ijrosi to‘g‘risida**
**MA’LUMOT**

*2026-yil 1-yanvar holatiga*

| № | Korrupsiyaviy xavf-xatarni minimallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar/amalga oshirish mexanizmi | Funksiyaning korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi | Mas’ul tarkibiy tuzilma | Lavozimi | Korrupsiyaviy xavf-xatarni minimallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar ijrosi |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Vazirlikka tegishli bino va inshootlar, ularga tegishli hududlarni toza va ozoda saqlash, obodonlashtirish ishlarini olib borish, shuningdek, ta’mirlash, kapital qurilish, kommunal xizmat ko‘rsatish ishlarini tashkillashtirish, vazirlik mol-mulkini saqlanishini ta’minlash va boshqa xo‘jalik ishlari bilan shug‘ullanishda:<br>- davlat xaridlarini amalga oshirish jarayonida O‘zbekiston Respublikasi "Davlat xaridlari to‘g‘risida"gi Qonuni hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil 1-oktabrdagi "O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligida davlat xaridlari jarayonini tashkil etish to‘g‘risida"gi 198-sonli buyrug‘i talablari asosida amalga oshirilishi ta’minlash;<br>- Vazirlik balansidagi mol-mulkining ishlatilishi, saqlanishi va hisobdan chiqarilishida O‘zbekiston respublikasi "Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida"gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2009-yildagi 31-dekabrdagi "Budjet tashkilotlari va davlat unitar korxonalarining asosiy vositalarini hamda qurilishi tugamagan obyektlarini sotish, shuningdek, ularni sotishdan tushgan pul mablag‘larini taqsimlash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 343-sonli qarori, "Asosiy vositalar qiymatini balansdan chiqarish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnoma" (r/r: 1401, 29.08.2004y.) va Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi yo‘riqnomaga (r/r: 2169, 22.12.2010y.), O‘zbekiston Respublikasi budjet hisobining standartlari (8-sonli BHS) "Ko‘chmas mulk, bino va jihozlar"ga (r/r: 3144, 20.03.2019y.) hamda | O‘rta | Iqtisodiyot va moliya vazirligi - Ishlar boshqarmasi | Boshqarma boshlig‘i<br>Boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari<br>Bosh mutaxassis<br>Bosh mutaxassis<br>Bosh mutaxassis<br>Yetakchi mutaxassis<br>Yetakchi mutaxassis | **1. Vazirlikka tegishli bino va inshootlar, ularga tegishli hududlarni toza va ozoda saqlash, obodonlashtirish ishlarini olib borish yuzasidan:**<br>Iqtisodiyot va moliya vazirligiga tegishli bino va inshootlardan oqilona va samarali foydalanishni ta‘minlash, hududlarni ozoda saqlash, obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish, joriy va kapital ta‘mirlash hamda kapital qurilish ishlarini tashkil etish, kommunal xizmatlar bilan uzluksiz ta‘minlash, shuningdek vazirlik balansidagi mol-mulklarning saqlanishi va maqsadli foydalanilishini ta‘minlash yuzasidan Ishlar boshqarmasi tomonidan kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqilib, belgilangan tartibda amaliyotga joriy etilgan.<br>Mazkur chora-tadbirlar doirasida vazirlikka tegishli binolar bo‘yicha kommunal xizmatlar uchun sarf-xarajatlar muntazam ravishda tizimli tahlil qilinib boriladi. Kommunal xizmatlar bo‘yicha shartnomalar tuzilishidan avval vazirlikning 2023-yil 10-oktabrdagi 198-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan komissiya a‘zolariga asoslantirilgan hisob-kitoblar ilova qilingan holda taqdim etiladi. Taqdim etilgan hisob-kitoblarning maqsadga muvofiqligi va asoslanganligi komissiya tomonidan ko‘rib chiqilib, tegishli xulosa berilgandan so‘ng shartnomalar belgilangan tartibda rasmiylashtiriladi.<br>Shu bilan birga, davlat xaridlari jarayonlarining shaffofligini ta‘minlash maqsadida komissiya a‘zolari tomonidan Davlat xaridlari elektron portali orqali tovarlar va xizmatlar bo‘yicha tuzilayotgan barcha shartnomalar elektron tarzda monitoring qilib boriladi. Jumladan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri tuziladigan shartnomalar bo‘yicha ularning maqsadliligi hamda narxlarning bozor narxlari bilan mosligi solishtirma tahlillar asosida o‘rganiladi. Davlat xaridlari jarayonlari O‘zbekiston Respublikasining 684-sonli “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni talablariga muvofiq amalga oshiriladi. Kommunal xizmatlar uchun to‘lovlar yetkazib |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | Vazirlikning 2024-yil 8-iyuldagi "Asosiy vositalarni va qiymatliklarni hisobdan chiqarish bo‘yicha ichki komissiya tuzish to‘g‘risida"gi 23-124-sonli buyruq talablariga rioya etilishini ta’minlash;<br>- xodimlarning korrupsiyaga qarshi bilim va ko‘nikmalarini muntazam oshirib borish. | | | | beruvchi tomonidan taqdim etilgan sarf-xarajatlar to‘g‘risidagi ma‘lumotnomalar asosida hisob-kitob qilinib, mazkur hisob-kitoblar komissiya bilan kelishilganidan so‘ng shartnomalar belgilangan tartibda rasmiylashtirilib kelinmoqda.<br>Vazirlik balansidagi mol-mulkdan foydalanish, ularning saqlanishi hamda belgilangan tartibda hisobdan chiqarilishi jarayonlari O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 31-dekabrdagi 343-son qarori bilan tasdiqlangan nizom, “Asosiy vositalar qiymatini balansdan chiqarish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnoma” (ro‘yxat raqami 1401, 29.08.2004-yil), Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi yo‘riqnoma (ro‘yxat raqami 2169, 22.12.2010-yil), O‘zbekiston Respublikasi budjet hisobining standartlari (8-sonli BHS) “Ko‘chmas mulk, bino va jihozlar” (ro‘yxat raqami 3144, 20.03.2019-yil) hamda Vazirlikning 2024-yil 8-iyuldagi “Asosiy vositalarni va qiymatliklarni hisobdan chiqarish bo‘yicha ichki komissiya tuzish to‘g‘risida”gi 23-124-sonli buyrug‘i talablariga qat‘iy rioya etilgan holda amalga oshirilmoqda.<br>Mazkur yo‘nalishda asosiy vositalar va boshqa moddiy qiymatliklar bo‘yicha barcha harakatlar dalolatnomalar orqali rasmiylashtiriladi. Binoga olib kirilayotgan yoki binodan chiqarilayotgan barcha moddiy qiymatliklar alohida nazorat qilinib boriladi. Shu jumladan, inventarizatsiya ishlari muntazam ravishda olib borilib, ularning saqlanishi, maqsadli ishlatilishi va buxgalteriya hisobida to‘g‘ri aks ettirilishi ta‘minlanadi. Yaroqsiz holga kelgan yoki foydalanishdan chiqarilishi lozim bo‘lgan asosiy vositalar bo‘yicha tegishli hujjatlar rasmiylashtirilib, ichki komissiya xulosasi asosida belgilangan tartibda hisobdan chiqarish ishlari amalga oshirilmoqda.<br>Shu bilan birga, mol-mulk bilan bog‘liq barcha operatsiyalar ochiqlik va shaffoflik tamoyillariga muvofiq yuritilib, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha tegishli choralar ko‘rilmoqda.<br>*Ma’lumot uchun: Iqtisodiyot va moliya vazirligining budjet va budjetdan tashqari mablag‘lardan amalga oshirilgan davlat xaridlari bo‘yicha har choraklik ma’lumotlari chorak yakuni bo‘yicha keyingi oyning 20 sanasiga qadar vazirlikning rasmiy saytiga joylashtirilib borilmoqda.* |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | *Havola:* (https://www.imv.uz/oz/opendata/category/pq-447-son-5-ilova-boyicha-malumot)<br><br>**2. Xodimlarning korrupsiyaga qarshi bilim va ko'nikmalarini oshirib borish yuzasidan:**<br>O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi hamda Huquqni muhofaza qilish akademiyasi tomonidan tashkil etilgan "Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi" elektron platformasida o'qitishni tashkil etish tartibi to'g'risidagi Nizomning 16-bandi talablari asosida Ishlar boshqarmasi barcha xodimlari uchun 24 soatlik o'quv kurslari o'tkazilib, ularda korrupsiyaga qarshi qonunchilik, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish, axloqiy me'yorlar va amaliy nazorat mexanizmlari bo'yicha bilim va ko'nikmalari oshirildi.<br>Vazirlik markaziy apparatida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida tashkil qilingan 11 ta o'quv seminarlari va treningida maskur band ijrosiga mas'ul bo'lgan xodimlar ishtiroki to'liq ta'minlangan.<br>Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil 10-iyuldagi 129-sonli buyrig'i 4-ilovasi bilan tasdiqlangan "Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimi xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitilishini tashkil etish bo'yicha YO'RIQNOMA"si hamda 2025-yil 10-fevralda 28/3-10-son bilan tasdiqlangan Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarga moyil bo'lgan lavozimlarda faoliyat yurituvchi xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida maxsus o'qitish bo'yicha 2025-yilga mo'ljallangan DASTUR ijrosi yuzasidan bilim va ko'nikmalarini oshirgan xodimlar test sinovlaridan o'tkazildi. *(Asoslovchi hujjatlar ilova qilinadi).* |
| 2 | Vazirlik markaziy apparati xodimlarini kanselyariya mollari bilan ta'minlash jarayonida:<br>- kanselyariya mollarining sarflanishini tahlil qilish, haqiqatda talab etilgan miqdorda xarid qilish;<br>- kanselyariya mollarini xarid qilishda "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonun talablariga rioya qilinishini ta'minlash;<br>- kanselyariya mollarining maqsadli sarflanishini monitoring qilish; | O'rta | Iqtisodiyot va moliya vazirligi - Ishlar boshqarmasi | Boshqarma boshlig'i<br>Boshqarma boshlig'i o'rinbosari<br>Bosh mutaxassis<br>Bosh mutaxassis<br>Bosh mutaxassis<br>Yetakchi mutaxassis | **1. Vazirlik markaziy apparati xodimlarini kanselyariya mollari bilan ta'minlash va xarid qilish jarayonlari yuzasidan:**<br>Vazirlik markaziy apparati xodimlarini kanselyariya mollari bilan ta'minlash jarayonida barcha chora-tadbirlar belgilangan tartibda amalga oshirilmoqda. Xaridlar oldin xodimlar va bo'limlarning talabnomalari ishlab chiqarish hajmi va amaldagi ehtiyojlar asosida tizimli tahlil qilinadi, shuning natijasida haqiqatda talab etilgan miqdorda va maqsadli xaridlar amalga oshiriladi. Kanselyariya mollari xaridi O'zbekiston Respublikasi |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | - xodimlarning korrupsiyaga qarshi bilim va ko'nikmalarini muntazam oshirib borish. | | | Yetakchi mutaxassis | "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni talablariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil 10-oktabrdagi 198-son bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligida davlat xaridlari jarayonini tashkil etish to'g'risida"gi buyrug'iga asosan Xarid komissiyasi tuzilgan bo'lib, sotib olinayotgan tovar va xizmatlar barchasi kollegial tartibda ko'rib chiqiladi hamda xaridlar **xarid.uzex.uz, e-tender.uzex.uz** **va** **cooperation.uz** elektron savdo platformalari orqali inson omilisiz, shaffofligini ta'minlagan holda amalga oshiriladi.<br>*Ma'lumot uchun: Iqtisodiyot va moliya vazirligining budjet va budjetdan tashqari mablag'lardan amalga oshirilgan kassa xarajatlari bo'yicha har choraklik ma'lumotlar xarajatlar moddasi kesimida chorak yakuni bo'yicha keyingi oyning 20 sanasiga qadar vazirlikning rasmiy saytiga joylashtirilib borilmoqda.*<br>*Havola:*<br>– (https://www.imv.uz/oz/opendata/category/pq-447-son-5-ilova-boyicha-malumot)<br>– **https://gov.uz/oz/imv/sections/view/8708**<br>– ac6688ef-1e50-5374-dbf7-7a85abbdefdc_media_.pdf<br>– bd48eeb8-37eb-b792-1894-ede42d8feab8_media_.pdf<br>– 9188e67e-a51b-c6d3-9e56-8aca2cdcbeb8_media_.xlsx<br>– 346b6c88-fe0a-7ff0-8bc0-854b5a3ae7f4_media_.pdf<br>**2. Xodimlarning korrupsiyaga qarshi bilim va ko'nikmalarini oshirib borish yuzasidan:**<br>O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi hamda Huquqni muhofaza qilish akademiyasi tomonidan tashkil etilgan "Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi" elektron platformasida o'qitishni tashkil etish tartibi to'g'risidagi Nizomning 16-bandi talablari asosida Ishlar boshqarmasi barcha xodimlari uchun 24 soatlik o'quv kurslari o'tkazilib, ularda korrupsiyaga qarshi qonunchilik, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish, axloqiy me'yorlar va amaliy nazorat mexanizmlari bo'yicha bilim va ko'nikmalari oshirildi.<br>Vazirlik markaziy apparatida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida tashkil qilingan 11 ta o'quv seminarlari va treningida maskur band ijrosiga mas'ul bo'lgan xodimlar ishtiroki to'liq ta'minlangan. |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil 10-iyuldagi 129-sonli buyrig‘i 4-ilovasi bilan tasdiqlangan “Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimi xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitilishini tashkil etish bo‘yicha YO‘RIQNOMA”si hamda 2025-yil 10-fevralda 28/3-10-son bilan tasdiqlangan Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarga moyil bo‘lgan lavozimlarda faoliyat yurituvchi xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida maxsus o‘qitish bo‘yicha 2025-yilga mo‘ljallangan DASTUR ijrosi yuzasidan bilim va ko‘nikmalarini oshirgan xodimlar test sinovlaridan o‘tkazildi. *(Asoslovchi hujjatlar ilova qilinadi).* |
| **3** | Vazirlik balansida mavjud bo‘lgan xizmat avtomashinalarining saqlanishi va avtotransport vositalarini yonilg‘i-moylash materiallari bilan ta’minlash hamda yonilg‘i sarflanishini nazorat qilish, avtotransport vositalarini tegishli xodimlarga biriktirishda:<br>- avtotransport vositalarini ta’mirlash ishlarining me’yorlarini tahlil qilib borish;<br>- avtotransport vositalarini ta’mirlash ishlarining me’yorlarini tahlil qilib borish;<br>- avtotransport vositalariga yonilg‘i-moylash materiallari sarfida belgilangan limitga rioya qilinishini ta’minlash;<br>- xodimlarning korrupsiyaga qarshi bilim va ko‘nikmalarini muntazam oshirib borish. | O‘rta | Iqtisodiyot va moliya vazirligi - Ishlar boshqarmasi | Boshqarma boshlig‘i<br>Boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari<br>Bosh mutaxassis<br>Bosh mutaxassis<br>Bosh mutaxassis<br>Yetakchi mutaxassis<br>Yetakchi mutaxassis | **1. Vazirlik balansida mavjud bo‘lgan xizmat avtomashinalarining saqlanishi va avtotransport vositalarini yonilg‘i-moylash materiallari bilan ta’minlash yuzasidan:**<br>Vazirlik balansida jami 13 ta xizmat avtomashinalari mavjud bo‘lib, ularni saqlash, yonilg‘i-moylash materiallari bilan ta‘minlash, yonilg‘i sarflanishini nazorat qilish hamda avtotransport vositalarini tegishli xodimlarga biriktirish vazifalari belgilangan. Ushbu yo‘nalishda barcha topshiriqlar tartibli va tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. Xizmat avtomashinalarida yonilg‘i-moylash materiallari sarfi belgilangan limitlarga to‘liq rioya qilinadi. Har bir avtomashina bo‘yicha kitob shaklida anketa yuritilib, hisobot tizimi joriy etilgan. Ta‘mirlash bilan bog‘liq sarf-harajatlar va nuqson dalolatnomalari shaffoflikni ta‘minlash maqsadida, xizmat ko‘rsatuvchi servis bilan Davlat xaridlari portali orqali shartnoma tuzilib, rasmiy saytlar orqali e‘lon qilinadi. Shu orqali avtotransport vositalarining ta‘mirlash va yonilg‘i sarflanishi jarayonlari muntazam nazorat qilinmoqda.<br>Havola: 15-band. Davlat organlari va tashkilotlari tasarrufidagi xizmat avtomototransport vositalari, xizmat uylari va boshqa ko‘chmas mulklar, qurilishi tugallanmagan obyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar (tezkor-qidiruv, harbiy va boshqa maxsus xizmatlarda foydal<br><br>**2. Xodimlarning korrupsiyaga qarshi bilim va ko‘nikmalarini oshirib borish yuzasidan:**<br>O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi hamda Huquqni muhofaza qilish akademiyasi tomonidan tashkil etilgan “Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi” elektron platformasida o‘qitishni tashkil etish |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | tartibi to‘g‘risidagi Nizomning 16-bandi talablari asosida Ishlar boshqarmasi barcha xodimlari uchun 24 soatlik o‘quv kurslari o‘tkazilib, ularda korrupsiyaga qarshi qonunchilik, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish, axloqiy me‘yorlar va amaliy nazorat mexanizmlari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalari oshirildi.<br>Vazirlik markaziy apparatida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida tashkil qilingan 11 ta o‘quv seminarlari va treningida maskur band ijrosiga mas'ul bo‘lgan xodimlar ishtiroki to‘liq ta'minlangan.<br>Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil 10-iyuldagi 129-sonli buyrig‘i 4-ilovasi bilan tasdiqlangan “Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimi xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitilishini tashkil etish bo‘yicha YO‘RIQNOMA”si hamda 2025-yil 10-fevralda 28/3-10-son bilan tasdiqlangan Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarga moyil bo‘lgan lavozimlarda faoliyat yurituvchi xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida maxsus o‘qitish bo‘yicha 2025-yilga mo‘ljallangan DASTUR ijrosi yuzasidan bilim va ko‘nikmalarini oshirgan xodimlar test sinovlaridan o‘tkazildi. *(Asoslovchi hujjatlar ilova qilinadi).* |
| **4** | Tovar (ish, xizmat)lar xarid qilinishida O‘zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to‘g‘risida"gi Qonuni va sohaga tegishli boshqa me’yoriy hujjatlar talablariga rioya qilinganligi yuzasidan tekshirish o‘tkazish jarayonida:<br>- o‘tkazilgan audit tadbirlari yuzasidan rahbariyatga tegishli ma’lumotlarni kiritib borish hamda Vazirlikning 2024-yil 27-dekabrdagi 23-250-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan "Xavfni boshqarish qo‘mitasiga" hisobot berib borish;<br>- davlat xaridlari davlat buyurtmachisining o‘z oldida turgan vazifalarni hal etishni ta’minlaydigan haqiqiy talablari va ehtiyojlarini samarali qanoatlantirish uchun davlat xaridlarini o‘tkazishning maqsadga muvofiqligi va zarurligi, tovarni (ishni, xizmatni) tanlashni, uning iste’mol xususiyatlari (tavsifi), sifat ko‘rsatkichlarining va qiymatining asoslanganligi hisobga olingan holda | O‘rta | Iqtisodiyot va moliya vazirligi - Ichki audit xizmati boshqarmasi | Boshqarma boshlig‘i<br>Boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari<br>Bosh mutaxassis<br>Bosh mutaxassis<br>Bosh mutaxassis<br>Yetakchi mutaxassis | **1. Tovar (ish, xizmat)lar xarid qilinishida O‘zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to‘g‘risida"gi Qonuni va sohaga tegishli boshqa me’yoriy hujjatlar talablariga rioya qilinganligi yuzasidan:**<br>Ichki audit xizmati tomonidan 2025-yil davomida tasdiqlangan ish rejasi va rejadan tashqari topshiriqlar bo‘yicha audit tadbirlari o‘tkazilgan.<br>Jumladan, Ichki audit xizmati boshqarmasi tomonidan 52 ta audit tadbirlari o‘tkazilgan bo‘lib, shundan, tasdiqlangan ish rejaga asosan 46 ta, masofaviy audit tadbiri natijasida kuzatilgan risklar bo‘yicha 3 ta hamda rejadan tashqari (murojaat va xatlarga asosan) 3 ta audit tadbirlarini tashkil etadi.<br>Ichki audit obyektlarida O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni va sohaga tegishli boshqa me’yoriy hujjatlar talablariga rioya qilinishi bo‘yicha o‘tkazilayotgan audit tadbirlari davomida tovar (ish, xizmat)lar xarid qilinishida xarajatlar smetasida ko‘zda tutilgan maqsadlar uchun davlat xaridlarining maxsus axborot portallari orqali amalga oshirilishi, bunda xarid qilish shartlariga mos ravishda |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | amalga oshirish hamda affillangan, manfaatlar to‘qnashuvi kabi holatlarga yo‘l qo‘ymaslik.<br>- xodimlarning korrupsiyaga qarshi bilim va ko‘nikmalarini muntazam oshirib borish. | | | | tovar (ish, xizmat)lar yetkazib berilishi yuzasidan doimiy monitoring tizimi yo‘lga qo‘yilgan.<br>**2. Raqamlashtirish yuzasidan:**<br>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-iyundagi “Budjet mablag‘laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-100-son Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida, Hisob palatasining 2024-yil 8-iyundagi P-155-sonli hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 14-iyundagi 24-QQ-sonli “Hisob palatasining Masofaviy nazorat markazi tomonidan aniqlangan xavflarni tezkorlik bilan bartaraf etish choralarini ko‘rish” to‘g‘risida qo‘shma qarori (XDFU) imzolangan.<br>Ushbu qaror asosida Hisob palatasi tomonidan kelib tushgan risk (xavf)lar Iqtisodiyot va moliya vazirligida budjet mablag‘laridan maqsadli foydalanish va risk tahlillarni aniqlash imkonini beruvchi “Situatsion markazlar” tashkil qilingan holda Hisob palatasining “masofaviyaudit.uz” AAT orqali kelib tushgan xavflar bo‘yicha “UzAsbo” va “DMBAT” dasturiy majmuasida ochilgan kameral modellardan foydalangan holda vazirlikning ichki audit xizmati boshqarmasi, Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo‘limi hamda Markaziy apparatning boshqa tarkibiy tuzilmalari bilan birgalikda birlamchi ma’lumotlar asosida tahlillar qilinib, natijasi yuzasidan tuzilgan ma’lumotnomalar “masofaviyaudit.uz” axborot tizimiga joylashtirilib kelinmoqda.<br>Ma’lumot uchun: joriy yilda “masofaviyaudit.uz’ AATdan jami **3092** ta **4 721,6 mln** so‘mlik kelib tushgan xavflar bo‘yicha o‘rganishlar o‘tkazilib, nazoratdan yechilgan.<br>**3. Xodimlarning korrupsiyaga qarshi bilim va ko‘nikmalarini oshirib borish yuzasidan:**<br>O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi hamda Huquqni muhofaza qilish akademiyasi tomonidan tashkil etilgan “Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi” elektron platformasida o‘qitishni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi Nizomning 16-bandi talablari asosida Ichki audit xizmati boshqarmasi xodimlari uchun 24 soatlik o‘quv kurslari o‘tkazilib, ularda korrupsiyaga qarshi qonunchilik, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish, axloqiy me‘yorlar va amaliy nazorat mexanizmlari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalari oshirildi. |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | Vazirlik markaziy apparatida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida tashkil qilingan 11 ta o‘quv seminarlari va treningida maskur band ijrosiga mas’ul bo‘lgan xodimlar ishtiroki to‘liq ta’minlangan.<br>Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil 10-iyuldagi 129-sonli buyrig‘i 4-ilovasi bilan tasdiqlangan “Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimi xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitilishini tashkil etish bo‘yicha YO‘RIQNOMA”si hamda 2025-yil 10-fevralda 28/3-10-son bilan tasdiqlangan Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarga moyil bo‘lgan lavozimlarda faoliyat yurituvchi xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida maxsus o‘qitish bo‘yicha 2025-yilga mo‘ljallangan DASTUR ijrosi yuzasidan bilim va ko‘nikmalarini oshirgan xodimlar test sinovlaridan o‘tkazildi. *(Asoslovchi hujjatlar ilova qilinadi).* |
| **5** | Ichki audit obyektlariga ajratilgan budjet va budjetdan tashqari mablag‘larning belgilangan maqsadlar uchun sarflanishini o‘rganish jarayonida:<br>- o‘tkazilgan audit tadbirlari yuzasidan rahbariyatga tegishli ma’lumotlarni kiritib borish hamda Vazirlikning 2024-yil 27-dekabrdagi 23-250-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan "Xavfni boshqarish qo‘mitasiga" hisobot berib borish;<br>- o‘tkazilgan audit tadbirlari yakuni bilan to‘plangan materiallar huquqiy baho berish uchun O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasiga yuborish. Shuningdek, audit tadbiri yakuni bo‘yicha rasmiylashtirilgan hisobotlar O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining "Davlat audit" DMga kiritib borish;<br>- xodimlarning korrupsiyaga qarshi bilim va ko‘nikmalarini muntazam oshirib borish. | O‘rta | Iqtisodiyot va moliya vazirligi - Ichki audit xizmati boshqarmasi | Boshqarma boshlig‘i<br>Boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari<br>Bosh mutaxassis<br>Bosh mutaxassis<br>Bosh mutaxassis<br>Yetakchi mutaxassis | **1. Ichki audit obyektlariga ajratilgan budjet va budjetdan tashqari mablag‘larning belgilangan maqsadlar uchun sarflanishini o‘rganish yuzasidan:**<br>Ichki audit xizmati boshqarmasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 27-avgustdagi “Davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6300-son Farmoniga asosan o‘tkazilgan audit tadbirlari “Davlat auditi” dasturida ro‘yxatdan o‘tkazilishi ta’minlandi.<br>Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 4-iyunda “O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligida Xavflarni boshqarish qo‘mitasini tashkil etish to‘g‘risida”gi 23-137-sonli buyrug‘i bilan Xavflarni boshqarish qo‘mitasi tashkil etilib, Qo‘mita a’zolari tegishli tartibda vazirlik huzuridagi o‘quv markazida tashkil etilgan malaka oshirish kurslarida ishtiroki ta’minlanib kelinmoqda.<br>Shuningdek, Ichki audit xizmati boshqarmasi tomonidan o‘tkazilgan audit tadbirlari natijasi bo‘yicha vazirlik rahbariyatiga tegishli tartibda axborot kiritib borish amaliyoti yo‘lga qo‘yilgan hamda audit tadbiri yakuni bilan rasmiylashtirilgan hisobotlar va to‘plangan materiallar huquqni muhofaza qiluvchi organlarga belgilangan tartibda yuborilib kelinmoqda.<br>**2. Xodimlarning korrupsiyaga qarshi bilim va ko‘nikmalarini oshirib borish yuzasidan:** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi hamda Huquqni muhofaza qilish akademiyasi tomonidan tashkil etilgan "Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish" mavzusidagi 24 soatlik maxsus chuqurlashtirilgan o'quv kursida ichki audit xizmati boshqarmasi xodimlari to'liq ishtiroki ta'minlanib, mazkur kurslarni muvaffaqiyatli yakunladi.<br>Vazirlik markaziy apparatida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida tashkil qilingan 11 ta o'quv seminarlari va treningida maskur band ijrosiga mas'ul bo'lgan xodimlar ishtiroki to'liq ta'minlangan.<br>Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil 10-iyuldagi 129-sonli buyrig'i 4-ilovasi bilan tasdiqlangan "Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimi xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitilishini tashkil etish bo'yicha YO'RIQNOMA"si hamda 2025-yil 10-fevralda 28/3-10-son bilan tasdiqlangan Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarga moyil bo'lgan lavozimlarda faoliyat yurituvchi xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida maxsus o'qitish bo'yicha 2025-yilga mo'ljallangan DASTUR ijrosi yuzasidan bilim va ko'nikmalarini oshirgan xodimlar test sinovlaridan o'tkazildi. *(Asoslovchi hujjatlar ilova qilinadi).* |
| **6** | Vakant ish joylarini to'ldirish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining https://vacancy.argos.uz/ platformasi orqali olib borilishi.<br>Xodimlarning korrupsiyaga qarshi bilim va ko'nikmalarini muntazam oshirib borish. | O'rta | Iqtisodiyot va moliya vazirligi - Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish departamenti | Departament direktori o'rinbosari — boshqarma boshlig'i<br>Bo'lim boshlig'i<br>Bosh mutaxassis<br>Yetakchi mutaxassis<br>Yetakchi mutaxassis | **1. Vakant ish joylarini to'ldirish yuzasidan:**<br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi respublikamizdagi mavjud eng katta vazirliklardan bo'lib, unda markaziy apparat, vazirlik huzuridagi tashkilotlar va hududiy boshqarma hamda bo'limlarda doimiy ravishda tanlov jarayonlari tashkil etib boriladi.<br>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5843-sonli Farmoniga muvofiq, davlat organlari va tashkilotlaridagi davlat fuqarolik xizmatiga qabul qilish (saylanadigan va alohida tartibda tayinlanadigan lavozimlar bundan mustasno) tanlov asosida amalga oshirilishi keltirilgan.<br>Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19- iyundagi PF-95-son Farmonining (keyingi o'rinlarda – Farmon) 6-ilovasi bilan Davlat fuqarolik xizmati lavozimini egallash uchun tanlov o'tkazish tartibi to'g'risida nizom (keyingi |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | o'rinlarda – Nizom) tasdiqlangan bo'lib, mazkur Nizom bilan tanlov o'tkaziladigan davlat fuqarolik xizmati lavozimlari va tanlov o'tkazish tartibi belgilangan.<br>O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligidagi mavjud vakant lavozimlar yuzasidan tanlovlar *vacancy.gov.uz* tizimi orqali Nizom talablari asosida amalga oshirilmoqda.<br>Mazkur qonunchilik talablaridan kelib chiqqan holda vazirlik tizimiga xodimlarni ishga qabul qilish davlat fuqarolik xizmatchilari vakant lavozimlarining yagona ochiq portali **(vacancy.gov.uz)** orqali tanlov o'tkazish asosida amalga oshiriladi.<br>Joriy yilning 1-yanvardan 30-dekabrgacha bo'lgan davrda vazirlikning markaziy apparatida jami 189 ta vakansiyalar bo'yicha e'lon berilgan bo'lib, (ma'lumot uchun ushbu vakansiyalar bo'yicha 16 538 nafar nomzodlar ariza topshirgan) shundan, 151 ta vakansiya bo'yicha 151 nafar jumladan, 80 ta yangidan ishga qabul qilingan, 71 ta tizimda faoliyat yuritib lavozimi ko'tarilgan nomzodlar tanlov komissiyasi tomonidan munosib deb e'tirof etilib ishga qabul qilingan. Qolgan vakansiyalar bo'yicha esa nomzodlar belgilangan malaka talablariga mos kelmagan va test sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tmagan.<br>O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligida mavjud vakant lavozimlarga tanlovlar *vacancy.gov.uz* tizimi orqali ishga qabul qilish tanlov komissiyasi tarkibiga Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo'limi boshlig'i kiritilgan bo'lib, tanlov jarayonlarini real vaqt rejimida ochiq, shaffof va meritokratiya tamoyillari asosida amalga oshirilmoqda.<br>**2. Xodimlarning korrupsiyaga qarshi bilim va ko'nikmalarini oshirib borish yuzasidan:**<br>O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi hamda Huquqni muhofaza qilish akademiyasi tomonidan tashkil etilgan "Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi" elektron platformasida o'qitishni tashkil etish tartibi to'g'risidagi Nizomning 16-bandi talablari asosida Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish departamenti Kadrlarni saralash boshqarmasi hamda hududiy bosh boshqamalarning Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish sho'basi xodimlari uchun 24 soatlik maxsus o'quv kurslari o'tkazilib, ularda |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | korrupsiyaga qarshi qonunchilik, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish, axloqiy me'yorlar va amaliy nazorat mexanizmlari bo'yicha bilim va ko'nikmalari oshirildi.<br>Vazirlik markaziy apparatida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida tashkil qilingan 11 ta o'quv seminarlari va treningida maskur band ijrosiga mas'ul bo'lgan xodimlar ishtiroki to'liq ta'minlangan.<br>Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil 10-iyuldagi 129-sonli buyrig'i 4-ilovasi bilan tasdiqlangan "Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimi xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitilishini tashkil etish bo'yicha YO'RIQNOMA"si hamda 2025-yil 10-fevralda 28/3-10-son bilan tasdiqlangan Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarga moyil bo'lgan lavozimlarda faoliyat yurituvchi xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida maxsus o'qitish bo'yicha 2025-yilga mo'ljallangan DASTUR ijrosi yuzasidan bilim va ko'nikmalarini oshirgan xodimlar test sinovlaridan o'tkazildi. *(Asoslovchi hujjatlar ilova qilinadi).* |
| 7 | Vazirlik ehtiyojlari uchun ajratilgan mablag'larni sarflanishi jarayonida:<br>- kelgusi moliya yili vazirlikning xarajatlar smetalarini belgilangan muddatda tuzilishi va tasdiqlanishini ta'minlash;<br>- tejamkorlik rejimiga amal qilgan holda xarajatlar smetalariga talab etilmaydigan tadbirlar uchun budjetdan ajratiladigan mablag'lar kiritishga yo'l qo'ymaslik;<br>- hisob-kitoblar va asoslantirishlar bilan tasdiqlanmagan summalarni xarajatlar smetalarida qabul qilishga yo'l qo'ymaslik;<br>- budjet tashkilotlari xodimlarini moddiy rag'batlantirish maxsus jamg'armasining to'g'ri tashkil qilinishini ta'minlash;<br>- xodimlarni korrupsiyaga qarshi bilim va ko'nikmalarini muntazam oshirib borish. | O'rta | Iqtisodiyot va moliya vazirligi - Moliya-iqtisod boshqarmasi | Boshqarma boshlig'i (bosh hisobchi)<br>Boshqarma boshlig'i o'rinbosari (bosh hisobchi o'rinbosari)<br>Bosh mutaxassis<br>Bosh mutaxassis<br>Bosh mutaxassis<br>Yetakchi mutaxassis<br>Yetakchi mutaxassis | **1. Vazirlik ehtiyojlari uchun ajratilgan mablag'larni sarflanishi jarayoni yuzasidan:**<br>O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi markaziy apparatida 2025-yil uchun xarajatlar smetasi va shtatlar jadvali O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining buyrug'i ( 2014-yil 15-dekabrda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 2634) bilan tasdiqlangan "Budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi" Nizom talablariga muvofiq tuzilganligini ma'lum qilamiz.<br>O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni hamda vazirlikning 2023-yil 10-oktyabrdagi 198-sonli "Iqtisodiyot va moliya vazirligida davlat xaridlari jarayonini tashkil etish to'g'risida"gi buyrug'iga asosan, 2025-yil davomida vazirlikda xizmat yoki tovarlar yetkazib beruvchilarni aniqlash talablari bo'yicha qator vazifalar amalga oshirilgan.<br>Jumladan, vazirlikning Ishlar boshqarmasi hamda Moliya-iqtisod boshqarmasi mas'ul xodimlari tomonidan 2025-yil uchun davlat xaridlarini rejalashtirilishida quyidagilar: |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | Vazirlikning alohida tarkibiy bo'linmalaridan rejalashtiriladigan yil uchun taqdim etilgan talabnomalar;<br>avvalgi yillarda tovar (ish, xizmat)larga qilingan xarajatlar;<br>mavjud tovar- moddiy zaxiralar qoldig'i;<br>rejalashtirilgan yilda yangi tashkil etiladigan ish o'rinlari uchun talab etiladigan asosiy vositalar va tovar-moddiy zaxiralar;<br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi rahbariyati topshirig'iga asosan xarid qilinishi lozim bo'lgan tovar (ish, xizmat)lar hisob-kitobi inobatga olindi.<br>Joriy yil 25-dekabr holatiga xizmat yoki tovarlar yetkazib beruvchilar bilan jami 1002 ta shartnoma tuzilgan bo'lib, shundan:<br>– 597 ta - elektron do'kon orqali;<br>– 8 ta - boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksion;<br>– 10 ta – eng yaxshi takliflarni tanlash;<br>– 2 ta – tender;<br>– 385 ta – to'g'ridan – to'g'ri shartnomalarni tashkil etadi.<br>Barcha shartnomalar davlat xaridlari qonunchiligi talablari asosida amalga oshirilgan bo'lib, vazirlikning 2023-yil 10-oktyabrdagi 198-sonli buyrug'ining 3-ilovasi "Iqtisodiyot va moliya vazirligida eng yaxshi takliflarni tanlash, tender, to'g'ridan-to'g'ri shartnomalarni rasmiylashtirish va yuritish ma'muriy reglamenti"ga muvofiq hamda ehtiyojdan kelib chiqib davlat xaridlarini amalga oshirish bo'yicha tuzilayotgan shartnomalarni Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo'limining mas'ul xodimlari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatiga mosligi o'rganib borilgan.<br>**2. Iqtisodiyot va moliya vazirligining budjet va budjetdan tashqari mablag'lardan amalga oshirilgan kassa xarajatlari bo'yicha:**<br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi markaziy apparati xodimlari tomonidan 2025-yil davomida amalga oshirilgan mahalliy va xorijiy xizmat safarlari bo'yicha tayyorlangan jami 2184 ta moliyaviy hisobotlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-avgustdagi 424-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi hududida xizmat safarlari to'g'risidagi" nizom hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining buyrug'i (19.11.2015 yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 2730) bilan tasdiqlangan "Davlat organlari va |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | tashkilotlari xodimlari O‘zbekiston Respublikasi tashqarisiga xizmat safariga yuborilganda xizmat safari xarajatlari uchun mablag‘lar berish tartibi to‘g‘risidagi” nizom talablariga asosan tekshirilib yakuniy hisob-kitoblar amalga oshirildi.<br>*Ma’lumot uchun: Iqtisodiyot va moliya vazirligining budjet va budjetdan tashqari mablag‘lardan amalga oshirilgan kassa xarajatlari bo‘yicha har choraklik ma’lumotlar xarajatlar moddasi kesimida chorak yakuni bo‘yicha keyingi oyninig 20 sanasiga qadar vazirlikning rasmiy saytiga joylashtirilib borilmoqda.*<br>*Havola:*<br>–(https://www.imv.uz/oz/opendata/category/pq-447-son-5-ilova-boyicha-malumot)<br>– **https://gov.uz/oz/imv/sections/view/8708**<br>– be0b317b-bd5a-1181-e5d7-243f2c16bcac_media_.pdf<br>– 7c603b58-e7cd-80c4-1fc3-95a4234f5c6c_media_.pdf<br>– 37f2de75-cc10-4928-97c4-3aa7de63dfb4_media_.pdf<br>– e29dfc44-6204-324f-34d1-06c2760b3971_media_.pdf<br>– 346b6c88-fe0a-7ff0-8bc0-854b5a3ae7f4_media_.pdf<br>**3. Xodimlarning korrupsiyaga qarshi bilim va ko‘nikmalarini oshirib borish yuzasidan:**<br>O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi hamda Huquqni muhofaza qilish akademiyasi tomonidan tashkil etilgan “Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi” elektron platformasida o‘qitishni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi Nizomning 16-bandi talablari asosida Moliya-iqtisod boshqarmasi hamda hududiy bosh boshqarmalarning Budjet ijrosi hisobi va hisoboti hamda budjet tashkilotlarida hisob kitob ishlarini monotoring qilish sho‘basi xodimlari uchun 24 soatlik maxsus o‘quv kurslari o‘tkazilib, ularda korrupsiyaga qarshi qonunchilik, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish, axloqiy me‘yorlar va amaliy nazorat mexanizmlari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalari oshirildi.<br>Vazirlik markaziy apparatida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida tashkil qilingan 11 ta o‘quv seminarlari va treningida maskur band ijrosiga mas’ul bo‘lgan xodimlar ishtiroki to‘liq ta’minlangan.<br>Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil 10-iyuldagi 129-sonli buyrig‘i 4-ilovasi bilan tasdiqlangan “Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimi |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitilishini tashkil etish bo‘yicha YO‘RIQNOMA”si hamda 2025-yil 10-fevralda 28/3-10-son bilan tasdiqlangan Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarga moyil bo‘lgan lavozimlarda faoliyat yurituvchi xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida maxsus o‘qitish bo‘yicha 2025-yilga mo‘ljallangan DASTUR ijrosi yuzasidan bilim va ko‘nikmalarini oshirgan xodimlar test sinovlaridan o‘tkazildi. *(Asoslovchi hujjatlar ilova qilinadi).* |

**Korrupsiyaga qarshi kurashish**
**va komplayens nazorati bo‘limi boshlig‘i** **O.Samadov**